

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 10 | **pp.** 261-271 | **ISSN**: 2181-1865
Available online https://finance.tsue.uz/index.php/afa

QISHLOQ XO'JALIGIDA QO'SHIMCHA VA YONDOSH MAHSULOTLARNI IKKILAMCHI RESURS SIFATIDA HISOBGA OLISH, BAHOLASH VA ULARDAN FOYDALANISHNI HUJJATLASHTIRISH



Mardonov Mamed Shavkatovich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasi dotsenti, PhD, dotsent
E-mail: mamedmardonov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-1011-7806

Annotatsiya. *Maqolada qishloq xo'jaligida asosiy mahsulotdan tashqari olinadigan somon, go'ng va boshqa mahsulotlarning bo'linish nuqtasidan keyingi hisob maqomi, baholanishi va harakatini hujjatlashtirish masalalari tadqiq etilgan. Qo'shimcha mahsulot, yondosh mahsulot, ikkilamchi resurs va chiqindi maqomlari hamda maqomni aniqlashning to'rt bosqichli algoritmi taklif etilgan, unda asosiy mezon - foydalanishning hujjatlashtirilishi. Partiyalar bo'yicha hisob, davr oxirida boshlang'ich baho va realizatsiya qilishning sof qiymatining kichigi bo'yicha baholash, sotishning quyi narx chegarasi, birlamchi hujjatlar va buxgalteriya yozuvlari tizimi asoslangan. Samarqand viloyatidagi xo'jaliklarning 1C ma'lumotlari yondosh mahsulotlar bozori faolligini va ularni hisobda nol qiymatda yuritishga asos yo'qligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *qo'shimcha mahsulot, yondosh mahsulot, ikkilamchi resurs, go'ng, somon, realizatsiya qilishning sof qiymati, partiya hisobi.*

Аннотация. *В статье исследованы вопросы учетного статуса, оценки и документального оформления движения соломы, навоза и других продуктов, получаемых в сельском хозяйстве помимо основной продукции, после точки разделения. Предложены статусы сопутствующего и побочного продукта, вторичного ресурса и отходов, а также четырехэтапный алгоритм определения статуса, основным критерием которого является документальное подтверждение использования. Обоснованы партионный учет, оценка на конец периода по наименьшей из первоначальной оценки и чистой стоимости реализации, нижняя граница цены продажи, система первичных документов и бухгалтерских записей. Данные 1С хозяйств Самаркандской области показывают активность рынка побочных продуктов и отсутствие оснований учитывать их по нулевой стоимости.*

Ключевые слова: *сопутствующий продукт, побочный продукт, вторичный ресурс, навоз, солома, чистая стоимость реализации, партионный учет.*

Abstract. *The article examines the accounting status, measurement and documentation of straw, manure and other products obtained in agriculture beside the main product after the split-off point. Four statuses – joint product, by-product, secondary resource and waste – and a four-step algorithm for determining the status are proposed, the main criterion being documented use. Batch accounting, end-of-period measurement at the lower of initial value and net realisable value, the*

lower price limit for sale, and a system of primary documents and journal entries are substantiated. 1C data of farms in Samarkand region show an active market for by-products and no grounds for carrying them at zero value.

Keywords: *joint product, by-product, secondary resource, manure, straw, net realisable value, batch accounting.*

1. KIRISH

Qishloq xo‘jaligida asosiy mahsulot bilan birga katta hajmda somon, go‘ng, don chiqindisi va boshqa mahsulotlar olinadi. Ular bo‘linish nuqtasida asosiy mahsulotdan ajraladi, so‘ngra saqlanadi, xo‘jalikning o‘z dalalari va chorvachiligiga beriladi, sotiladi yoki qayta ishlashga topshiriladi, saqlash davomida esa ularning miqdori va sifati o‘zgaradi. Amaliyotda bu harakat hisobda deyarli ko‘rinmaydi. Kuzatilgan «Siyob-Shavkat-Orzu» fermer xo‘jaligida (Tayloq tumani) oyiga taxminan 1 525,6 t go‘ng hosil bo‘lsa-da, uning miqdori, ichki topshirish va sotish hujjatlari yuritilmaydi; g‘allachilik xo‘jaliklarida somonning qancha qismi yig‘ib olingani va qanchasi dalada qoldirilgani qayd etilmaydi.

Masalaning ko‘lami katta. 2025-yilda respublikada 8,4 mln t don yetishtirilgan [1]; kuzatilgan g‘allachilik xo‘jaliklaridagi don va somon nisbati (1:1,2) qo‘llansa, har yili 10 mln t ga yaqin somon hosil bo‘ladi. Bu resurslarning hisobda aks etmasligi asosiy mahsulot tannarxini oshirib ko‘rsatadi, ichki aylanmani yashiradi va «sotish yoki o‘zida qoldirish» qarorini asossiz qiladi. Maqolaning maqsadi - qo‘shimcha va yondosh mahsulotlarning bo‘linish nuqtasidan keyingi hisob maqomini, baholash tartibini va harakatini hujjatlashtirish tizimini asoslash.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Masalaning birinchi tomoni atamashunoslik bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining «Chiqindilar to‘g‘risida»gi Qonunida chiqindi deganda ishlab chiqarish yoki iste’mol jarayonida hosil bo‘lgan va o‘z iste’mol xususiyatlarini yo‘qotgan xomashyo, material va mahsulotlar tushuniladi [2]. Go‘ng va somon esa iste’mol xususiyatini yo‘qotmagan: ular o‘g‘it, ozuqa va energiya manbai bo‘lib, bozorda sotiladi. Yevropa Ittifoqining chiqindilar to‘g‘risidagi direktivasi dehqonchilikda yoki biomassadan energiya olishda foydalaniladigan go‘ng, somon va boshqa xavfsiz tabiiy qishloq xo‘jaligi materiallarini chiqindilar rejimidan chiqarib tashlaydi [3]. Rossiya Federatsiyasida 2023-yil 1-martdan kuchga kirgan qonun go‘ng va to‘shamani belgilangan talablarga javob berganda chorvachilikning yondosh mahsuloti, aks holda chiqindi deb tan oladi [4]. Demak, mahsulotning hisobdagi maqomi uning fizik tabiatiga emas, balki undan foydalanish va bu foydalanishning hujjatlashtirilishiga bog‘liq.

Xalqaro standartlarga ko‘ra, ahamiyatsiz qo‘shimcha mahsulotlar ko‘pincha realizatsiya qilishning sof qiymati (NRV) bo‘yicha baholanadi va bu qiymat asosiy mahsulot tannarxidan chegiriladi [5]; milliy amaliyotda bu masala 4-son BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar» bilan tartibga solinadi [6]. Boshqaruv hisobi adabiyotida yondosh mahsulotni hisobga olishning ikki usuli ajratiladi: «ishlab chiqarish» usulida mahsulot ishlab chiqarilgan paytda tan olinadi, «sotish» usulida esa faqat sotilganda daromad sifatida aks ettiriladi [7]. Material oqimlari xarajatlari hisobi (MFCA) bo‘yicha ISO 14051

standarti avval materiallarning natural oqimini o‘lchash, so‘ngra xarajatlarni mahsulotlar va yo‘qotishlar o‘rtasida taqsimlashni tavsiya etadi [8]; bu yondashuv qishloq xo‘jaligidagi qoldiqlar uchun ham samarali ekani ta’kidlangan [9].

Mamlakatimiz olimlari bu masalani asosan bo‘linish nuqtasidagi baholash nuqtai nazaridan ko‘rib chiqqan. B.Yu.Menglikulov sut chorvachiligida nasl va go‘ngni «yondash va qo‘shimcha mahsulotlar» deb birga nomlaydi va go‘ng tannarxini uni yig‘ish, to‘shama, chiqarish va saqlashning me’yoriy xarajatlari asosida aniqlashni tavsiya etadi; uning misolida 1 t go‘ng 50,0 ming so‘mdan baholanib, sigirlarni saqlash xarajatlaridan chegiriladi [10]. A.S.Boltayev 4-son BHMS talabidan kelib chiqib, qo‘shimcha mahsulotning joriy qiymati yoki NRV asosiy mahsulot xarajatlaridan chegirilishini ta’kidlaydi va g‘allachilik misolida «qo‘shimcha mahsulotni haqiqatda sotish» hamda «qo‘shimcha mahsulotni haqiqatda ishlab chiqarish» usullarini taklif etadi [11]. Ikkala muallif ham bo‘linish nuqtasidagi bahoni ko‘rib chiqadi, lekin mahsulotning keyingi harakati - saqlash, o‘z ehtiyojiga berish, qayta ishlash va yo‘qotishlar - hamda uni qaysi shartda hisobda tan olish mezoni ochiq qoladi. Yondashuvlarning farqi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Qo‘shimcha va yondosh mahsulotlarni hisobga olishga yondashuvlarning qiyosi

Belgi	B.Yu.Menglikulov	A.S.Boltayev	Taklif etilayotgan yondashuv
Atamalar	Nasl va go‘ng - «yondash va qo‘shimcha mahsulotlar»	Somon - «qo‘shimcha mahsulot»	Qo‘shimcha mahsulot, yondosh mahsulot, ikkilamchi resurs, chiqindi - mezonlari bilan
Tan olish sharti	Belgilanmagan	Hisob siyosatida tanlangan usulga bog‘liq	Miqdor o‘lchangani va foydalanish yoki sotish hujjatlashtirilgani
Bo‘linish nuqtasidagi baho	Me’yoriy yig‘ish va saqlash xarajatlari	Joriy qiymat yoki NRV	Qo‘shimcha - taqsimlangan tannarx; yondosh - NRV va ozuqa moddasi qiymatining kichigi
Bo‘linish nuqtasidan keyingi harakat	Ko‘rib chiqilmagan	Sotilmagan qoldiq NRV bo‘yicha	Partiyalar bo‘yicha hisob, ichki topshirish, yo‘qotish me’yorlari, min(baho; NRV)
Sotish yoki o‘z ehtiyojiga berish qarori	Ko‘rib chiqilmagan	Ko‘rib chiqilmagan	Sotishning quyi narx chegarasi $p_i^* = X_i + V_i$

Manba: [10], [11] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, material oqimlari xarajatlari hisobi mantig‘i [8], zaxiralarni baholash qoidalari [5; 6] hamda boshqaruv qarorlari uchun tegishli xarajatlar tahlili [7] qo‘llandi. Empirik asos sifatida «Ahad bobo chorvalari 777» va «Oblaqul bobo chorvalari» MChJlarining (Pastdarg‘om tumani) 1C dasturidagi 2024–2026-yillar xarid hujjatlari [12], «Siyob-Shavkat-Orzu» fermer xo‘jaligi rahbariyati bilan suhbat materiallari

[13] hamda «Baxtiyor Madiyor Taroqli» va «Asilbek Alibek» fermer xo‘jaliklarining (Urgut tumani) 2025-yil ma’lumotlari [14] olindi. Narxlar QQSsiz keltirildi. Go‘ng tarkibi xo‘jaliklarda laboratoriya tahlili bilan aniqlanmagani uchun ozuqa moddalari qiymati adabiyotdagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar bo‘yicha oraliq ko‘rinishida olindi [15; 16].

4. TAHLIL VA NATIJALAR

4.1. Hisob maqomlari va ularni aniqlash algoritmi

Asosiy mahsulotdan tashqari olinadigan mahsulotlar uchun to‘rtta hisob maqomi taklif etiladi (2-jadval). 4-son BHMSda asosiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va sotish qiymati asosiy mahsulotga qaraganda o‘ta past bo‘lgan mahsulotlar «qo‘shimcha mahsulot» deb yuritiladi [6]; quyidagi tasnifda bu tushuncha foydalanish tartibi va hujjatlashtirilishiga ko‘ra aniqlashtirilib, qo‘shimcha va yondosh mahsulotga ajratiladi. Qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarish maqsadlaridan biri bo‘ladi yoki qiymat ulushi sezilarli bo‘lib, unga qo‘shma xarajatlar taqsimlanadi. Yondosh mahsulot tasodifan hosil bo‘ladi, qiymat ulushi kichik, lekin undan foydalanish yoki uni sotish hujjat bilan tasdiqlangan va u qayta ishlashsiz ishlatiladi; uning qiymati asosiy mahsulot tannarxidan chegiriladi. Ikkilamchi resurs ham foydali, lekin qayta ishlashni talab qiladi va shu sababli alohida qayta ishlash obyektiga o‘tkaziladi. Chiqindi esa foydalanish qiymatiga ega emas: uning qiymati nolga teng, yo‘q qilish xarajati davr xarajatiga olinadi.


2-jadval. Asosiy mahsulotdan tashqari olinadigan mahsulotlarning hisob maqomlari

Maqom	Mezon	Baholash	Hisobda aksi	Misol
Qo‘shimcha mahsulot	Ishlab chiqarish maqsadlaridan biri yoki sezilarli qiymat ulushi	Qo‘shma xarajatlarning taqsimlangan ulushi	Alohida kalkulyatsiya obyekti; 2810 da kirim	Yig‘ib olingan somon
Yondosh mahsulot	Kichik qiymat ulushi; foydalanish yoki sotish hujjatlashtirilgan; qayta ishlashsiz ishlatiladi	NRV va ozuqa moddasi qiymatining kichigi	Asosiy mahsulot xarajatlaridan chegiriladi	Sotilgan yoki dalaga solingan go‘ng, don chiqindisi
Ikkilamchi resurs	Foydali, lekin qayta ishlashni talab qiladi	Bo‘linish nuqtasidagi baho va NRV ning kichigi	Qayta ishlash obyektining xomashyosi	Biogaz uchun go‘ng, kompost uchun qoldiqlar
Chiqindi	Foydalanish qiymati yo‘q; yo‘q qilish xarajati bor	Nol	Yo‘q qilish xarajati - davr xarajati	Tozalashdan chiqqan yaroqsiz aralashma

Manba: [2], [6], [5], [3], [4], [7] asosida muallif ishlanmasi.

Bir xil fizik mahsulot turli maqomga ega bo‘lishi va maqomini o‘zgartirishi mumkin. Masalan, go‘ngning sotilgan yoki ichki dalolatnoma bilan dalaga berilgan qismi

yondosh mahsulot, biogaz qurilmasiga topshirilgan qismi ikkilamchi resurs, miqdori o‘lchanmagan va foydalanishi hujjatlashtirilmagan qismi esa hisobda tan olinmaydi va faqat natural boshqaruv registrida kuzatiladi. Maqomni aniqlashning to‘rt bosqichli algoritmi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Asosiy mahsulotdan tashqari olinadigan mahsulotning hisob maqomini aniqlash algoritmi

Manba: muallif ishlanmasi.

Algoritmning asosiy mezoni - foydalanishning hujjatlashtirilishi. U asosiy mahsulot tannarxini tasdiqlanmagan taxminlar hisobiga kamaytirishning oldini oladi: miqdori o‘lchanmagan mahsulotning qiymati chegirilsa, asosiy mahsulot tannarxi tekshirib bo‘lmaydigan summaga o‘zgaradi. Shu bilan birga, mezon maqomni o‘zgarmas deb hisoblamaydi: xo‘jalik tortish va ichki topshirish hujjatlarini yurita boshlashi bilanoq go‘ng «tan olinmagan» maqomdan yondosh mahsulot maqomiga o‘tadi.

4.2. Bo‘linish nuqtasidan keyingi partiya hisobi

Bo‘linish nuqtasidagi baho mahsulot maqomiga qarab aniqlanadi. Qo‘shimcha mahsulot qo‘shma xarajatlarning taqsimlangan ulushida baholanadi: «Baxtiyor Madiyor Taroqli» fermer xo‘jaligida somon ozuqa moddalariga asoslangan usulda 1 t uchun 374,0 ming so‘mga baholangan [14]. Yondosh mahsulot NRV va ozuqa moddasi qiymatining kichigi bo‘yicha, o‘z ehtiyojiga berilganda esa qabul qiluvchi ekin yoki hayvonlar guruhining ehtiyoji bilan cheklangan qiymatda baholanadi. Bo‘linish nuqtasidan keyin

mahsulot partiyalar bo‘yicha hisobga olinadi: MFCA mantig‘iga muvofiq, avval partiyaning natural harakati kuzatiladi, so‘ngra unga qiymat beriladi [8]. Partiyaning harakati quyidagi tenglama bilan nazorat qilinadi:

$$Q_{end} = Q_{beg} + Q_{in} - Q_{out} - Q_{loss}; \quad V_{end} = Q_{end} \times \min(c_{sp}; NRV_{end}) \qquad (1)$$

bunda Q_{end}, Q_{beg} - partiyaning davr oxiridagi va boshidagi miqdori, t; Q_{in} - davr mobaynida kirim qilingan miqdor, t; Q_{out} - sotilgan, o‘z ehtiyojiga va qayta ishlashga topshirilgan miqdor, t; Q_{loss} - saqlashdagi yo‘qotish, t; V_{end} - partiyaning davr oxiridagi balans qiymati, so‘m; c_{sp} - 1 t ning bo‘linish nuqtasidagi bahosi, so‘m; NRV_{end} - 1 t ning davr oxiridagi realizatsiya qilishning sof qiymati, so‘m.

Tenglamaning ikkinchi qismi zaxiralarni tannarx va NRV ning kichigi bo‘yicha baholash qoidasini yondosh mahsulotga qo‘llaydi [5; 6]. Saqlashdagi yo‘qotish ikkiga ajratiladi. Me’yor doirasidagi yo‘qotish - masalan, ochiq saqlangan somonning namlanishi yoki go‘ng azotining bir qismi uchib ketishi - mahsulot miqdorini kamaytiradi, lekin partiyaning umumiy qiymatini o‘zgartirmaydi va qolgan miqdor bahosiga kiradi. Me’yordan ortiq yo‘qotish esa davr xarajatiga olinadi. Go‘ngdagi jami azotning bir qismi saqlash va dalaga solishda yo‘qoladi, birinchi yilda o‘simlik o‘zlashtiradigan ulush esa jami miqdordan kam [16]. Shu sababli go‘ngning ozuqa moddasi qiymati jami tarkib bo‘yicha emas, o‘zlashtiriladigan ulush bo‘yicha hisoblanishi va yo‘qotish me’yorlari xo‘jalikning o‘z o‘lchovlari asosida hisob siyosatida belgilanishi lozim.

4.3. Sotish yoki o‘z ehtiyojiga qoldirish qarori

Yondosh va qo‘shimcha mahsulot bo‘yicha eng muhim boshqaruv qarori - uni sotish yoki o‘z ehtiyojiga qoldirish. Bu qaror buxgalteriya hisobida ko‘rinmaydi, chunki sotilganda tushum, o‘z dalalariga berilganda esa hech qanday daromad aks etmaydi. Qarorni iqtisodiy asoslash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar taklif etiladi:

(2)

bunda B_i - i-mahsulotning 1 t ini sotishdan xo‘jalikka qoladigan sof naf, so‘m; p_i - 1 t ning sotish narxi, so‘m; X_i - sotish bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar (presslash, yuklash, tashish), so‘m; V_i - o‘z ehtiyojiga qoldirilganda o‘rnini bosadigan resursning (mineral o‘g‘it, ozuqa) qiymati, so‘m; p_i^* - sotishning quyi narx chegarasi, so‘m.

Formulada faqat sotish qaroriga bog‘liq xarajatlar hisobga olinadi. Go‘ngni molxonadan yig‘ish xarajati podani saqlashning sharti bo‘lib, go‘ng sotilsa ham, dalaga berilsa ham yuzaga keladi; shuning uchun u X_i ga kiritilmaydi. «Baxtiyor Madiyor Taroqli» fermer xo‘jaligida somonni toylash, ortish va tashish xarajati 1 t uchun 272,6 ming so‘m, daladan olib chiqiladigan ozuqa moddalarining qiymati 101,4 ming so‘m bo‘lib, sotishning quyi narx chegarasi 374,0 ming so‘mni tashkil etadi; toyi 14 000 so‘mlik (1 t uchun 933,3 ming so‘m) narxda xo‘jalikka har bir tonnadan 559,3 ming so‘m sof naf qoladi [14]. «Siyob-Shavkat-Orzu» xo‘jaligida go‘ng bir ZIL yuki uchun 1,0–1,2 mln so‘mdan, ya’ni 1 t uchun taxminan 200–240 ming so‘mdan sotiladi [13], uning ozuqa moddalari qiymati esa tarkibiga qarab 1 t uchun 54,7–92,1 ming so‘mni tashkil etadi [15; 16]. Demak, yuklash va tashishning qo‘shimcha xarajati 1 t uchun 107,9–185,3 ming so‘mdan kam bo‘lsa, go‘ngni sotish iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydi. Bu hisob go‘ngning organik modda

va tuproq tuzilishiga ta’sirini hisobga olmaydi; organik moddasi kam tuproqlarda V_i ni oshirish uchun agronomik asos bo‘lishi mumkin va bu hisob siyosatida ochiq ko‘rsatiladi.

4.4. Yondosh mahsulotlar bozori

Yondosh mahsulotlar NRV ini ishonchli aniqlash mumkinligini bozor ma’lumotlari tasdiqlaydi. Boshqa tarmoqlarning yondosh mahsulotlari chorvachilikda asosiy ozuqa xomashyosiga aylangan: «Ahad bobo chorvalari 777» MChJ 2026-yilning yanvar–sentyabr oylarida paxta yog‘i ishlab chiqarishning yondosh mahsulotlari bo‘lgan 1 852,3 t paxta shroti va 1 781,9 t paxta sheluxasini, un tortishning yondosh mahsuloti bo‘lgan 857,2 t bug‘doy kepagini sotib olgan [12]. Ularning narxlari va asosiy mahsulot - bug‘doy narxiga nisbati 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Yondosh va qo‘shimcha mahsulotlarning bozor narxlari (QQSsiz)

Mahsulot	Manba va davr	Narx	2024-yilga nisbatan o‘zgarish, %	Bug‘doy doniga nisbati
Paxta shroti	«Ahad bobo chorvalari 777», 2026-y. yanvar–sentyabr	4 295 so‘m/kg	+45,1	1,52
Paxta sheluxasi	«Ahad bobo chorvalari 777», 2026-y. yanvar–sentyabr	3 391 so‘m/kg	+43,6	1,20
Bug‘doy kepagi	«Ahad bobo chorvalari 777», 2026-y. yanvar–sentyabr	1 451 so‘m/kg	+32,8*	0,51
Bug‘doy kepagi	«Oblaqul bobo chorvalari», 2026-y. sentyabr	2 679 so‘m/kg	-	0,95
Don chiqindisi	«Oblaqul bobo chorvalari», 2026-y. avgust	893 so‘m/kg	-	0,32
Bug‘doy doni (taqqoslash uchun)	«Ahad bobo chorvalari 777», 2026-y. yanvar–sentyabr	2 831 so‘m/kg	+41,8	1,00
Go‘ng	«Siyob-Shavkat-Orzu», 2025-y.	200–240 ming so‘m/t	-	-
Somon	«Baxtiyor Madiyor Taroqli» va «Asilbek Alibek», 2026-y.	933 ming so‘m/t (14 000 so‘m/toy)	-	-

*Manba: [12], [13], [14] asosida muallif hisob-kitobi. * 2025-yilga nisbatan (2024-yilda kepak xarid qilinmagan).*

Jadvaldan uchta xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, yondosh mahsulotlar bozori faol va ularning narxi asosiy mahsulot narxi bilan bir xil sur’atda o‘smoqda: paxta shroti va sheluxasining narxi ikki yilda 44–45 foizga, bug‘doy donining 41,8 foizga oshgan. Demak, NRV ni aniqlash uchun bozor ma’lumoti mavjud va yondosh mahsulotni hisobda nol qiymatda yuritish uchun asos yo‘q. Ikkinchidan, bir xil mahsulot narxi korxonalar

o‘rtasida keskin farq qiladi: bug‘doy kepagi bir yilning o‘zida 1 451 va 2 679 so‘m/kg dan xarid qilingan. Shu sababli NRV bitta bitim bo‘yicha emas, davr mobaynidagi o‘rtacha narx bo‘yicha aniqlanadi va uning manbai hujjatlashtiriladi. Uchinchidan, bir tarmoqning yondosh mahsuloti boshqa tarmoqning asosiy xarajatiga aylanadi: «Ahad bobo chorvalari 777» MChJning 2026-yildagi ozuqa xaridlarida paxta shroti va sheluxasi eng katta o‘rinni egallaydi. Bu yondosh mahsulotni baholashdagi xatolik uni ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning emas, balki uni iste’mol qiluvchi xo‘jalikning tannarxiga ham ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

4.5. Hujjatlashtirish va buxgalteriya yozuvlari

Maqomni aniqlash, baholash va harakatni nazorat qilish uchun birlamchi hujjatlar va registrlar tizimi taklif etiladi (4-jadval). Uning asosiy elementi - «Organik o‘g‘it va yondosh mahsulotlar partiyalari» registri bo‘lib, unda har bir partiyaning hosil bo‘lgan sanasi, miqdori, saqlash joyi, tarkibi va harakati qayd etiladi. «Dala ozuqa qaytimi» registri esa dalada qoldirilgan o‘simlik qoldiqlarini moliyaviy hisobga kiritmasdan natural va qiymat ko‘rsatkichlarida kuzatishga xizmat qiladi.

4-jadval.

Qo‘shimcha va yondosh mahsulotlar harakatini hujjatlashtirish tizimi

Hujjat yoki registr	Qayd etiladigan ma’lumot	Mas’ul	Hisobdagi ahamiyati
Tortish yoki yuk hisobi dalolatnomasi	Yuklar soni, tekshirilgan yuk massasi, sana	Ferma mudiri, omborchi	Miqdorni aniqlash - tan olishning birinchi sharti
Partiya kartochkasi va «Organik o‘g‘it va yondosh mahsulotlar partiyalari» registri	Hosil bo‘lgan sana, miqdor, joy, quruq modda va ozuqa moddalari, harakat	Zootexnik, agronom	Q_{end} va V_{end} ni hisoblash, yo‘qotishni aniqlash
Ichki topshirish dalolatnomasi	Beruvchi va qabul qiluvchi obyekt kodi, dala va ekin yoki hayvonlar guruhi, miqdor (kg N, P_2O_5, K_2O; MJ)	Agronom, zootexnik, buxgalter	Ichki aylanmani bir xil bahoda aks ettirish
Sotish hujjatlari (ESF, yuk xati)	Xaridor, miqdor, narx	Buxgalter	NRV manbai, tushum
Yo‘qotishlar dalolatnomasi	Me’yor doirasidagi va me’yordan ortiq yo‘qotish, sabab	Komissiya	Me’yordan ortiq yo‘qotishni davr xarajatiga olish
«Dala ozuqa qaytimi» registri	Dalada qoldirilgan qoldiq miqdori va undagi ozuqa moddalari	Agronom	Keyingi ekin o‘g‘it ehtiyojini kamaytirish (boshqaruv hisobi)

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu hujjatlar asosida buxgalteriya yozuvlari 21-son BHMS hisobvaraqlari doirasida tuziladi [17] (5-jadval). Yozuvlar tizimi ikkita talabga javob beradi: mahsulot bir marta - bo‘linish nuqtasida - tan olinadi va keyingi barcha harakatlari shu bahoda amalga

oshiriladi; o‘z ehtiyojiga topshirilgan mahsulot esa beruvchi va qabul qiluvchi obyektda bir xil summada aks etadi.

5-jadval.

Qo‘shimcha va yondosh mahsulotlar bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari

Operatsiya	Debet	Kredit	Baho
Qo‘shimcha mahsulot (somon) kirimi	2810 «Somon»	2010 «G‘alla»	Taqsimlangan tannarx
Yondosh mahsulot (sotish uchun go‘ng, don chiqindisi) kirimi	2810 «Yondosh mahsulotlar» (partiyalar bo‘yicha)	2010 (asosiy mahsulot obyekti)	NRV va ozuqa moddasi qiymatining kichigi
O‘z dalalariga go‘ng berish	2010 «Dehqonchilik» (dala, ekin)	2010 «Sut podasi» yoki 2810	Ekin ehtiyoji bilan cheklangan ozuqa moddasi qiymati
O‘z chorvachiligiga somon berish	2010 «Chorvachilik» (guruh)	2810 «Somon»	Balans qiymati (MJ birligida qayd etiladi)
Ikkilamchi resursni qayta ishlashga topshirish	2010 «Qayta ishlash (biogaz, kompost)»	2810 yoki 2010 «Sut podasi»	Balans qiymati
Sotish	4010; 9110	9010; 2810	Sotish narxi; balans qiymati
Me’yordan ortiq yo‘qotish, NRV pasayishi	9430	2810	Yo‘qotilgan miqdor bahosi; pasayish summasi
Chiqindini yo‘q qilish xarajati	9430	6010, 6710, 1010	Haqiqiy xarajat

Manba: [6], [17], [5] asosida muallif ishlanmasi. Xo‘jalik bo‘yicha jamlashda o‘z ehtiyojiga topshirishlar ichki aylanma sifatida chiqariladi.

Taklif etilgan tartibning amaliy natijasini «Siyob-Shavkat-Orzu» xo‘jaligi misolida baholash mumkin. Hozirgi holatda go‘ng hisobda umuman aks etmaydi, go‘ngni yig‘ish va tashishga ketadigan oyiga 168,44 mln so‘m esa to‘liq sut podasi xarajatiga kiradi. Tortish va ichki topshirish hujjatlari joriy etilsa, go‘ng yondosh mahsulot maqomiga o‘tadi va uning o‘z dalalariga berilgan qismi sut tannarxini litriga 50,4–84,8 so‘mga, sotilgan har 100 ZIL yuki esa 79–95 so‘mga kamaytiradi. Bu summa dehqonchilik tomonida mineral o‘g‘it o‘rniga ekin tannarxiga kiradi va xo‘jalik bo‘yicha jamlashda ichki aylanma sifatida chiqariladi.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

1. Qishloq xo‘jaligida asosiy mahsulotdan tashqari olinadigan mahsulotning hisobdagi maqomi uning fizik tabiatiga emas, balki undan foydalanish va bu foydalanishning hujjatlashtirilishiga bog‘liq. Shu asosda to‘rtta maqom - qo‘shimcha mahsulot, yondosh mahsulot, ikkilamchi resurs va chiqindi - va ularni aniqlashning to‘rt bosqichli algoritmi taklif etildi. «Chiqindi» atamasi faqat foydalanish qiymati bo‘lmagan mahsulotlar uchun qo‘llanishi lozim.

2. Bo‘linish nuqtasidan keyin mahsulot partiyalar bo‘yicha hisobga olinadi va davr oxirida boshlang‘ich baho va NRV ning kichigi bo‘yicha baholanadi; me’yor doirasidagi yo‘qotish qolgan miqdor bahosiga kiradi, me’yordan ortig‘i davr xarajatiga olinadi.

3. «Sotish yoki o‘z ehtiyojiga qoldirish» qarori sotishning quyi narx chegarasi ($p^* = X + V$) asosida qabul qilinadi; unda faqat sotish qaroriga bog‘liq xarajatlar hisobga olinadi. G‘allachilik xo‘jaligida somonni sotish har bir tonnadan 559,3 ming so‘m sof naf beradi.

4. Yondosh mahsulotlar bozori faol bo‘lib, ularning narxi asosiy mahsulot narxi bilan bir xil sur’atda o‘smoqda; shu sababli ularni hisobda nol qiymatda yuritish uchun asos yo‘q. NRV davr mobaynidagi o‘rtacha narx bo‘yicha aniqlanishi va manbai hujjatlashtirilishi kerak.

5. Taklif etilgan hujjatlar tizimi va buxgalteriya yozuvlarini xo‘jaliklarning hisob siyosatiga kiritish asosiy mahsulot tannarxini to‘g‘ri aniqlash, ichki aylanmani ko‘rsatish va tarmoqlararo resurs oqimlarini boshqarish imkonini beradi. Kelgusida go‘ng va somon tarkibini laboratoriya tahlili bilan aniqlash va saqlashdagi yo‘qotish me’yorlarini xo‘jaliklarning o‘z o‘lchovlari asosida belgilash lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Interfax. Uzbekistan’s grain harvest in 2025 (10.12.2025). URL: https://interfax.com/newsroom/top-stories/115252/

2. O‘zbekiston Respublikasining «Chiqindilar to‘g‘risida»gi Qonuni. 2002-yil 5-aprel, 362-II-son (keyingi o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan). URL: https://lex.uz/mact/42423

3. Directive 2008/98/EC of the European Parliament and of the Council of 19 November 2008 on waste and repealing certain Directives. Official Journal of the European Union, L 312, 22.11.2008, art. 2(1)(f).

4. Федеральный закон Российской Федерации от 14.07.2022 № 248-ФЗ «О побочных продуктах животноводства и о внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации».

5. IFRS Foundation. IAS 2 Inventories. London: IFRS Foundation.

6. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 4-son milliy standarti «Tovar-moddiy zaxiralar» (Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyunda 3259-son bilan ro‘yxatga olingan). URL: https://lex.uz/docs/4890446

7. Datar, S. M., & Rajan, M. V. (2021). Horngren’s Cost Accounting: A Managerial Emphasis (17th ed.). Pearson.

8. ISO 14051:2011. Environmental management - Material flow cost accounting - General framework. Geneva: International Organization for Standardization.

9. Christ, K. L., & Burritt, R. L. (2015). Material flow cost accounting: A review and agenda for future research. Journal of Cleaner Production, 108, 1378–1389. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2014.09.005

10. Menglikulov B.Yu. Chorvachilikda biologik aktivlarni saqlash xarajatlari hisobi, tannarx hisoblash va auditi metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Toshkent: TDAU, 2023. 200 b.

11. Boltayev A.S. Qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Toshkent: TDIU, 2025.

12. «Ahad bobo chorvalari 777» MChJ va «Oblaqul bobo chorvalari» MChJ (Samarqand viloyati, Pastdarg‘om tumani) 1C dasturidagi xo‘jalik operatsiyalari ma’lumotlari, 2024–2026-yillar.

13. «Siyob-Shavkat-Orzu» fermer xo‘jaligi (Samarqand viloyati, Tayloq tumani): chorvachilik so‘rovnomasi va rahbariyat bilan suhbat materiallari, 2025–2026-yillar.

14. «Baxtiyor Madiyor Taroqli» va «Asilbek Alibek» fermer xo‘jaliklari (Samarqand viloyati, Urgut tumani): 2025-yil buxgalteriya hisobi ma’lumotlari va g‘allachilik so‘rovnomalari, 2026-yil.

15. Herbert, S., Hashemi, M., Chickering-Sears, C., & Weis, S. Manure inventory (Plant nutrients from manure, Publication 09-52). UMass Extension. URL: https://www.umass.edu/agriculture-food-environment/crops-dairy-livestock-equine/fact-sheets/manure-inventory

16. University of Minnesota Extension. Manure characteristics. URL: https://extension.umn.edu/manure-management-basics/manure-characteristics

17. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-son milliy standarti «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma» (Adliya vazirligida 2024-yil 27-dekabrda 3593-son bilan ro‘yxatga olingan). URL: https://lex.uz/docs/7282737

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)